

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### “QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 24-oktabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2015-yil 15-mayda ma’qullangan

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-iyulda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-163-sonli **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 7, 354-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda, № 12, 464-modda; 2012-yil, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (**ilova** qilinadi).

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;  
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**3-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.



*LexUZ sharhi*

*Ushbu Qonun “Xalq so‘zi” gazetasining 2015-yil 4-iyundagi 111 (6294)-sonida e’lon qilingan*

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2015-yil 3-iyun,  
O‘RQ-387-son

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida

(yangi tahriri)

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

##### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi qimmatli qog‘ozlar bozori sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun quyidagi qimmatli qog‘ozlarga nisbatan amal qiladi: aksiyalar, obligatsiyalar, g‘azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari, qimmatli qog‘ozlarning hosilalari va veksellar.

*Oldingi tahririga qarang.*

##### 2-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik

Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

*(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

##### 3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**aksiya** — o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

**axborotni oshkor qilish** — qimmatli qog‘ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat’i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta’minlash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**birja obligatsiyasi** — chiqarilishi fond birjasi tomonidan ro‘yxatga olinadigan va fond birjasining kotirovkalash varag‘iga kiritilgan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qarz emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

*(3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

**veksel** — veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

**davlat qimmatli qog‘ozlari** — O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

**depo hisobvarag‘i** — deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan, investitsiya vositachisining va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi;

**depo hisobvarag‘idan ko‘chirma** — deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan hujjat;

**depozitar operatsiyalar** — hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar;

**depozitar tilxatlar** — nominal qiymatga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘oz bo‘lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlarning muayyan soniga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog‘oz emitentidan depozitar tilxat o‘rniga taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi;

**depozit sertifikat** — bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

**deponent** — depo hisobvarag‘iga ega bo‘lgan shaxs;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**investitsiya aktivlari** — qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonunchilikka muvofiq investitsiya aktivlari deb e’tirof etiladigan boshqa mol-mulk;

*(3-moddaning o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

**investor** — qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**infratuzilma obligatsiyalari** — ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

**kliring** — qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**korporativ obligatsiyalar** — aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

*(3-moddaning o'n oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O'RQ-629-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son)*

**market-meyker** — qimmatli qog'ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o'z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi;

**nyetting** — mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli;

**noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar** — ushbu Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar;

**obligatsiya** — emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;



*LexUZ sharhi*

*Shuningdek, qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 741-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**xalqaro obligatsiya** — sotiladigan emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u emitent tomonidan chiqariladi va moliyaviy tashkilotlarning guruhi tomonidan joylashtiriladi, emitentning mamlakatidan tashqari bir yoki undan ko'proq davlatda taklif etiladi, birlamchi ravishda (shu jumladan obuna bo'yicha) faqat ushbu guruh orqali sotib olinadi;

*(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi O'RQ-533-sonli Qonuniga asosan yigirma birinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**chet ellik nominal saqlovchi** — qimmatli qog'ozlarga doir huquqlarni hisobga olishning va (yoki) qimmatli qog'ozlar hisob-kitoblarining xalqaro markazlashgan tizimi bo'lgan yoxud chet el birjalaridagi yoki boshqa tartibga solinadigan bozorlardagi savdolar natijalariga ko'ra qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi markaziy depozitariy bo'lgan, qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig'iga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda, qimmatli qog'ozlarni hisobga olishni va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiradigan chet el tashkiloti;

*(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuniga asosan yigirma uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

**opsion** — emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi;

**fond birjasi** — ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs;

**egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar** — mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishini talab etadigan qimmatli qog'ozlar;

**emissiyaviy qimmatli qog'ozlar** — bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar;

**Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri** — ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ro'yxati;

emitent — emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs;

**O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari** — emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beradi;

**qimmatli qog'ozlar** — hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;



*LexUZ sharhi*

*Shuningdek, qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 96-moddasi.*

**qimmatli qog'ozlar bozori** — yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi;

**qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari** — qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;

**qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi** — qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining mijozi (mijoz)** — deponent yoki qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat** — qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan yoki vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi;

*(3-modda birinchi qismining o'ttiz to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

**qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar** — qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar egasining almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi;

**qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers** — qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi;

**qimmatli qog'ozlarni joylashtirish** — qimmatli qog'ozlarni ularning dastlabki egalariга berish;

**Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi** — depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

**qimmatli qog'ozlarning muomalasi** — qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;

*(3-moddaning o'ttiz to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

**qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi** — qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni hisobga olishni va ularga bo'lgan

huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;

**qimmatli qog'ozlarni chiqarish** — yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obyeksi sifatida qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari;

**qimmatli qog'ozlar egasi** — qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**qimmatli qog'ozlar egalarining reyestri** — ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati;

**qimmatli qog'ozlar emissiyasi** — emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;

**qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi** — emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;

**qimmatli qog'ozlarning hosilalari** — o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsionlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;

**hisobga olish registrlari** — investitsiya vositachisida va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida qimmatli qog'ozlarni saqlash hamda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.

## 2-bob. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish

### 4-modda. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilish shakli

Qimmatli qog'ozlar chiqarilish shakliga ko'ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo'lishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarning chiqarilish shakli qonunchilikka muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanadi.

*(4-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 5-moddasi.*

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek depozitar tilxatlar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

### 5-modda. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

emitentning to'liq nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;  
emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror tasdiqlangan sana;  
emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan emitent boshqaruv organining nomi;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning turi va xili hamda ularning chiqarilish shakli;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egasining huquqlari;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari;

chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni;

ilgari joylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.



*Oldingi tahrirga qarang.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qonunchilikka muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qonunchilikka va emitentning ustaviga muvofiq emitent boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

*(5-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorda garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlash nazarda tutilsa, bunday qarorda ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minot shartlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak. Bunda obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi bunday qaror ta'minot beruvchi shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak.

*(5-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O'RQ-629-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-bobi ("Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash").*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan aksiyalarning emissiya risolasi aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarordir.

*(5-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda O'RQ-597-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 37-bandi.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida qoladi, bir nusxasi emitentga beriladi va bir nusxasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari"ning VII bobi ("Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror") (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi ro'yxatdan o'tkazilgan qarorga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur qarorni o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(5-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalarini”ning XIV bobi (“Avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlariga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish”) (ro‘yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.).*

## **6-modda. Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish shartlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi o‘z kapitali miqdori doirasida. Agar korporativ obligatsiyalar summasi emitentning o‘z kapitali miqdoridan oshsa, emitent oshgan summa uchun ta‘minot berishi shart;

so‘nggi bir yilda rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan emitentlar tomonidan;



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “Moliya bozorida reyting agentliklari faoliyatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1766, 13.02.2008-y.).*

obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasi mavjud bo‘lganda;

investorlarga tegishli mablag‘larning emitentlar tomonidan to‘lanishi bo‘yicha to‘lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalarini”ning (ro‘yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) V bobi (“Obligatsiyalarni chiqarish”).*

Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilgan sanadagi o‘z kapitali miqdori doirasida. Agar infratuzilma obligatsiyalari summasi emitentning o‘z kapitali miqdoridan oshsa, emitent oshgan summa uchun ta‘minot berishi shart;

obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi bir yil uchun moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasi mavjud bo‘lganda;

infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa, chiqariladi.

Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, shuningdek davlat korxonalarini tomonidan infratuzilma obligatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqariladi.

Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini chiqarishning qo‘shimcha shartlari qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

*(6-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-iyuldagi O‘RQ-629-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **6<sup>1</sup>-modda. Birja obligatsiyalarining emissiyasi, joylashtirilishi va muomalasi**

Birja obligatsiyalarining emissiyasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmasdan va qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda fond birjasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

To‘lash muddati bir yildan ko‘p bo‘lmagan birja obligatsiyalarini joylashtirish va ularning muomalasi fond birjalarida amalga oshiriladi.

Birja obligatsiyalarini joylashtirish faqat birja obligatsiyalarining chiqarilishini ro‘yxatga olgan fond birjasi orqali amalga oshiriladi.

*(6<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

## 7-modda. Aksiyalarga doir opsiionni chiqarish shartlari

Aksiyalarga doir opsiionni chiqarish shartlari ularning muomalasiga cheklovlarni nazarda tutishi mumkin.

Agar aksiyadorlik jamiyatining e'lon qilingan aksiyalari soni olish huquqini opsiionlar beradigan aksiyalar sonidan kam bo'lsa, mazkur jamiyat aksiyalarga doir bunday opsiionlarni joylashtirishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyatining mehnat jamoasi va kuzatuv kengashi a'zolariga mukofotni yoki rag'batlantirish to'lovini aksiyalarga doir opsiionlar tarzida berish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Olish huquqini opsiionlar beradigan muayyan turdagi aksiyalarning soni aksiyalarga doir opsiionlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra joylashtirilgan ushbu turdagi aksiyalarning 5 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Aksiyalarga doir opsiionlar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali uni ta'sis etish chog'ida to'liq to'langanidan keyin joylashtirilishi mumkin bo'ladi.



LexUZ sharhi

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar hosilalarini chiqarish va muomalada bo'lishi tartibi"ning (ro'yxat raqami 320, 02.04.1997-y.) 2.6 — 2.13-bandlari.*

## 8-modda. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan emitentning arizasi asosida amalga oshiriladi. Emitentning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror;

qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi (qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);

blanka namunasi (hujjatli shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilgan taqdirda);

*Oldingi tahrirga qarang.*

ro'yxati qonunchilikda belgilanadigan boshqa hujjatlar.

*(8-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidolari"ning (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) 43, 44-bandlari.*

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida davlat ro'yxatidan o'tkazishi yoki emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning har bir nusxasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishiga berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami ko'rsatiladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgarlik emitent zimmasida bo'ladi.



LexUZ sharhi



*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari”ning (ro‘yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) IX bobi (“Qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish”), “Qimmatli qog‘ozlar hosilalarini chiqarish va muomalada bo‘lishi tartibi” (ro‘yxat raqami 320, 02.04.1997-y.) III bobi (“QQHni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish”).*

## **9-modda. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish**

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning hamda ulardagi ma‘lumotlarning qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga nomuvofiqligi;

*(9-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibiga emitent tomonidan rioya etilmaganligi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan yig‘imlarning to‘lanmaganligi;

*(9-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarishni amalga oshirayotgan yuridik shaxsda ularni chiqarish huquqining yo‘qligi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining qarorida ko‘rsatilgan muddat ichida qayta murojaat etilgan taqdirda, yangitdan taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklardan tashqari yangi asoslarga ko‘ra emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari”ning (ro‘yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) XVI bobi (“Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini, shuningdek, avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish”), “Qimmatli qog‘ozlar hosilalarini chiqarish va muomalada bo‘lishi tartibi”ning (ro‘yxat raqami 320, 02.04.1997-y.) 3.7 va 3.8-bandlari.*

## **10-modda. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun yig‘im**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga yig‘im to‘laydi.

*(10-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ-666-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga yig'im to'laydi.

*(10-moddaning ikkinchi qismi 2021-yil 14-yanvardagi O'RQ-666-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari"ning (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) XII bobi ("Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini va (yoki) ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga doir o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yig'im").*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im quyidagi hollarda undirilmaydi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan emissiya risolasi asosida chiqarilgan taqdirda;

*(10-modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda O'RQ-597-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son)*

infratuzilma obligatsiyalari va opsiyon chiqarilgan taqdirda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

## **11-modda. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestrda emitentning nomi, qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa axborot bo'lishi lozim.

*(11-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 29-dekabrda 284-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish Yagona davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom.*

## **12-modda. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatib turish, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish**

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

emissiya jarayonida qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik talablari emitent tomonidan buzilganligi aniqlanganda, shuningdek emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishi haqida e'lon qilingan axborotda noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ular bartaraf etilguniga qadar to'xtatib turiladi;

*(12-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ularning chiqarilishini to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklar emitent tomonidan bartaraf etilmagan, shuningdek mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarning 60 foizdan kam qismi chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda xususiy joylashtirilgan taqdirda amalga oshmagan deb topiladi;

*(12-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001)*

sudning tegishli qarori mavjud bo'lgan taqdirda haqiqiy emas deb topiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, mazkur chiqarilishning barcha qimmatli qog'ozlari muomaladan olinishi lozim, amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini joylashtirishdan emitent olgan mablag'lar esa qonunchilikda belgilangan tartibda egalariga qaytarilishi kerak.

*(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish va mablag'larni egalariga qaytarish bilan bog'liq chiqimlarning o'rni emitent hisobidan qoplanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari”ning (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) XV bobi (“Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatib turish, qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish, shuningdek, obligatsiyalarni so'ndirish”).*

### **13-modda. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) etib chiqarilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 156-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-martdagi PF-3047-sonli “Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.*

### **14-modda. Depozit sertifikatlarini va veksellarni chiqarish**

Depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 770-moddasi, “Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida”gi nizom (ro'yxat raqami 1859, 24.09.2008-y.).*

Veksellarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 740-moddasi.*

### **3-bob. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi**

#### **15-modda. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi shartlari**

Qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirishga va ularning muomalasiga, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.



*LexUZ sharhi*

*Masalan, mazkur Qonun 13-moddasining birinchi qismi.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida;

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni, bundan xalqaro obligatsiyalar mustasno O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashtirish hamda muomalaga kiritish kvotalari va tartibini belgilaydi.

*(15-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi O'RQ-533-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-avgustdagi 239-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va muomalaga kiritish kvotalari va tartibi to'g'risida"gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarning qiymati, bundan xalqaro obligatsiyalar mustasno O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

*(15-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi O'RQ-533-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son)*

#### **16-modda. Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish ularni yozma ravishda (qog'ozda) rasmiylashtirish zaruratisiz elektron shaklda amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarga doir boshqa bitimlar yozma shaklda tuziladi va qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

*(16-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Uyushgan bozorlarda oldi-sotdi bitimlari tuzilganda ular yuzasidan hisob-kitob qilish muddatlari qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan, boshqa hollarda esa oldi-sotdi shartnomalari bilan belgilanadi. Belgilangan muddatlar buzilgan taqdirda bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 285-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida qiymatli qog‘ozlar bilan bitishuvlar tuzish va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “Qimmatli qog‘ozlar bilan birjadan tashqari bitimlarning hisob registri to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1919, 09.03.2009-y.), “Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1384, 16.07.2004-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (bundan emitent mustasno) O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga bitim summasining 0,01 foizi miqdorida yig‘im to‘laydi. Bunda sotuvchining, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentining tuzilgan bitim bo‘yicha daromadlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinmaydi.

*(16-moddaning uchinchi qismi 2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ-666-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son)*

Qimmatli qog‘ozlarga doir narxlarning, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun birja bitimlari tuzilganda market-meyker birjaga, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga yig‘imlar va boshqa to‘lovlar to‘lashdan ozod qilinadi.

### **17-modda. Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish**

Emitentlar qimmatli qog‘ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish quyidagi turlarda amalga oshirilishi mumkin:

qimmatli qog‘ozlarni xususiy joylashtirish (oldindan ma‘lum bo‘lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e‘lon bermagan va reklama kampaniyasi o‘tkazmagan holda yopiq obuna qilish);

qimmatli qog‘ozlarni ommaviy joylashtirish (soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o‘tkazgan holda ochiq obuna qilish).

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu moddaning **ikkinchi qismida** sanab o‘tilgan hollarning har biri uchun qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining eng kam yoki eng ko‘p hajmi qonunchilikda belgilanishi mumkin.

*(17-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Aksiyalarning ochiq obunasi qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdosidagina o‘tkaziladi.

Banklar va investitsiya vositachilari emitentlar tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining joylashtirilmagan qismini sotib olish majburiyatini olib yoki olmagan holda emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni emitent nomidan sotish to‘g‘risida emitentlar bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Joylashtirilayotgan qimmatli qog‘ozlarning soni emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan qimmatli qog‘ozlar sonidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emitent emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning haqiqatda joylashtirilgan sonini ularning chiqarilishi yakunlari to‘g‘risidagi bildirishnomada ko‘rsatadi. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishi yakunlari to‘g‘risidagi bildirishnomani taqdim etish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

*(17-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Emitent chiqarilayotgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishni ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda nazarda tutilgan muddatda tugallashi shart, bu muddat qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran bir yildan oshmasligi kerak.



Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot belgilangan tartibda oshkor qilinganidan keyin kamida ikki hafta o'tgach amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 43-moddasi.*

Emitent, shuningdek u bilan shartnomaga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlar joylashtirilishini amalga oshiruvchi banklar va investitsiya vositachilari mazkur qimmatli qog'ozlar olinguniga qadar investorga qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Hujjatsiz shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ushbu qimmatli qog'ozlar joylashtirilishi muddati ichida ularning haqi to'liq to'langanidan va ular oluvchilarning depo hisobvaraqlariga o'tkazilganidan keyin joylashtirilgan hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 33-moddasi, "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari" (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.) XIII bobi ("Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish"), "Ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni tarqatish va joylashtirish tartibi to'g'risida"gi nizomining (ro'yxat raqami 351, 01.07.1997-y.) IV bobi ("KQQLarni joylashtirish tartibi").*

## **18-modda. Qimmatli qog'ozlar muomalasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bitimlar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bunda aksiyalarning oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida amalga oshiriladi, bundan aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyalarning aksiyadorlik jamiyati tomonidan qaytarib sotib olinishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilangan hollar mustasno.

*(18-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda O'RQ-597-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 40-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 285-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida qiymatli qog'ozlar bilan bitishuvlar tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom.*

## **19-modda. Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning muomalasi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning muomalasi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(19-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **20-modda. Depozit sertifikatlarini va veksellarni joylashtirish hamda ularning muomalasi**

Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1859, 24.09.2008-y.).*

Veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **21-modda. Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari**

Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari quyidagilardir:  
fond birjasi;  
fond bo‘limini tashkil etgan valyuta birjasi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(21-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari rioya etilishi shart bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil qilish qoidalarini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari o‘z faoliyatini tegishli litsenziya asosida amalga oshiradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida yagona”gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari sotuvchidan sotuvga qo‘yilayotgan qimmatli qog‘ozlarni oldindan baholash o‘tkazilishini talab qilishga, agar bunday talab qonunchilikda belgilanmagan bo‘lsa, shuningdek qimmatli qog‘ozlarni ularning nominal qiymatidan past narxda realizatsiya qilishga taqiq belgilashga haqli emas.

*(21-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **22-modda. Kliringni amalga oshirish**

Kliring qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bitimlar natijalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlardagi va pul mablag‘laridagi hisob-kitoblar qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchisining kliring topshirig‘i asosida amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Kliringni amalga oshirish tartibi qonunchilik va qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan belgilanadi.

*(22-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-apreldagi 196-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qimmatli qog‘ozlar bozorida hisob-kitob-kliring palatalari to‘g‘risida”gi nizom.*

## **23-modda. Kafolat fondi**

Investitsiya vositachisi tomonidan investorga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash uchun qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchisi har bir investitsiya vositachisiga tegadigan vositachilik haqining chegirib qolinadigan qismi hisobidan kafolat fondini shakllantiradi. Kafolat fondining mablag‘lari investitsiya vositachilariga tegishli bo‘lib, har bir investitsiya vositachisi bo‘yicha alohida shakllantiriladi va hisobga olinadi.

Kafolat fondining mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas va ushbu mablag'lar investitsiya vositachisiga u investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatini tugatgan taqdirda qaytarilishi kerak.

Kafolat fondini shakllantirish va undan foydalanish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

#### 4-bob. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat

##### 24-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi, ushbu Qonunning 28, 29 va 31-moddalarida belgilangan hollar bundan mustasno.

*(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi: investitsiya vositachisi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 26 va 27-moddalari.*

investitsiya maslahatchisi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 28-moddasi.*

investitsiya fondi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 29-moddasi.*

investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 30-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(24-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 32-moddasi.*

Litsenziya talabgoriga uning arizasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni yoki mazkur faoliyat turining bir qismini amalga oshirish uchun litsenziya berilishi mumkin. Litsenziya talabgori bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga litsenziya berilganligi uchun davlat boji va litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'lashdan ozod qilinadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borish uchun belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lgan kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslargina (investitsiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar

bozorining professional ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi besh yil muddatga beriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 660, 03.03.1999-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonunchilikda belgilanadi.

*(24-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 26 — 32-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 42, 49, 53-moddalari.*

Chet el tashkiloti tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat yangi yuridik shaxsni — qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisini tashkil etish yoxud faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxsning — qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining ustav kapitalida ishtirok etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

## **25-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo‘shib olib borishga doir cheklolar**

Investitsiya fondining faoliyati boshqa turdagi faoliyat bilan birga qo‘shib olib borilishi mumkin emas.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Investitsiya maslahatchisi, agar u emitentlarga qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarni qabul qilish, ularga ishlov berish va ularni topshirish xizmatlarini (transfer-agent xizmatlarini) ko‘rsatayotgan bo‘lsa, investitsiya vositachisi professional faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

*(25-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001)*

Professional faoliyatni birga qo‘shib olib borish va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazishga doir qo‘shimcha cheklolar qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo‘shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo‘shib olib borish tartibi, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to‘g‘risida”gi nizomning (ro‘yxat raqami 1895, 05.02.2009-y.) III (“Professional faoliyatni birga qo‘shib olib borish tartibi”) va IV boblari (“Professional faoliyatni birga qo‘shib olib borishga doir cheklashlar”).*

## **26-modda. Investitsiya vositachisining faoliyati**

Mijozning topshirig‘iga binoan, mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi investitsiya vositachisidir.

Investitsiya vositachisi mijozlarining qimmatli qog‘ozlari va pul mablag‘lari, agar qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, investitsiya vositachisining o‘z hisobvaraqlaridan alohida hisobvaraqlarda turishi kerak.

Investitsiya vositachisi har bir mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berishi shart.

Investitsiya vositachisi mijozlarning qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtma berish, o'tkazish borasidagi topshiriqlarini vijdonan hamda ularning kelib tushishi tartibida bajarishi kerak. Mijozlarning topshirig'iga binoan amalga oshiriladigan bitimlar investitsiya vositachisining o'z dilerlik operatsiyalariga nisbatan ustun ravishda bajarilishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar investitsiya vositachisi tomonidan tegishli topshiriq olinguniga qadar investitsiya vositachisi va uning mijoz o'rtasidagi mijoz xabardor qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi mijozga zarar yetkazilishiga olib kelsa, investitsiya vositachisi zararining o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashi shart.

*(26-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasi va O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.*

Investitsiya vositachisi tomonidan investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatni to'xtatib turish, tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan yoki u tugatilgan taqdirda, tegishli axborot qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida va fond birjasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Investitsiya vositachisi sifatida o'z faoliyatini to'xtatib turayotgan, tugatayotgan yoki tugatilayotgan investitsiya vositachisida hisobi yuritilayotgan qimmatli qog'ozlar mijozning qaroriga ko'ra bir haftalik muddatda boshqa investitsiya vositachisiga o'tkaziladi, bunday qaror mavjud bo'lmagan taqdirda esa, qimmatli qog'ozlarning egasi tanlagan investitsiya vositachisiga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan muddatlarda keyinchalik o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga (faoliyatni to'xtatib turish hollari bundan mustasno) o'tkaziladi.

Yuridik shaxsni — investitsiya vositachisini tugatish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi ushbu moddaning **oltinchi qismida** ko'rsatilgan harakatlar yakunlanganligini yozma ravishda tasdiqlaganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Investitsiya vositachilarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1108, 13.03.2002-y.).*

## **27-modda. Investitsiya vositachisining depozitar operatsiyalarni amalga oshirish chog'idagi faoliyati**

Investitsiya vositachisi depozitar operatsiyalarni amalga oshirayotganda:

manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni va pul mablag'larini hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

deponentlarning har biriga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni va nominal qiymati hisobini yuritishi;

qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish va mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar bajarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 482-sonli qarori bilan tasdiqlangan*



“O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi idoraviy arxiv to‘g‘risida”gi *namunaviy nizom* va “Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining qimmatli qog‘ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarini hisobga olish, ularning hisobi bo‘yicha hujjatlarni saqlash to‘g‘risida”gi *nizom* (ro‘yxat raqami 1915, 07.03.2009-y.).

*Oldingi tahrirga qarang.*

depo hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

(27-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni* tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalari (Standarti)* (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 28.3-bandining 28.3.2-kichik bandi.

deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag‘idan tegishli ko‘chirma bergan holda tasdiqlashi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

mijozlarning hisobvaraqlaridagi qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘larining mavjudligi va harakati, ularning holati to‘g‘risidagi axborotning maxfiyligini ta‘minlashi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 49 va 50-moddalari hamda “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining)* (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 4 bobi (“Axborotning maxfiyligi”).

depo hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonunchilikda belgilangan tartibda to‘xtatib turishi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining)* (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 53 bobi (“Qimmatli qog‘ozlarni to‘xtatib qo‘yish”).

o‘z faoliyatiga taalluqli ma‘lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko‘ra qonunchilikda belgilangan doirada va tartibda taqdim etishi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 50-moddasi va “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining)* 4.3 — 4.5-bandlari (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.).

o‘zi yetkazgan zararining o‘rnini ushbu Qonunning 23-moddasiga muvofiq kafolat fondini shakllantirishda ishtirok etish, shuningdek qonunchilikka muvofiq javobgarlikni sug‘urta qilish yo‘li bilan qoplash imkoniyatini nazarda tutishi;

(27-moddaning sakkizinchi — o‘n birinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni* tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi (“Sug‘urta”).*

qimmatli qog‘ozlar egalarining reyestrini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarning egalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining talabiga ko‘ra taqdim etishi;



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “Aksiyalar egalari reyestri va korporativ obligatsiyalar egalari reyestri to‘g‘risida”gi nizomning (ro‘yxat raqami 1911, 25.02.2009-y.) IV bobi (“Reyestri shakllantirish tartibi”).*

o‘zida hisobga olinadigan qimmatli qog‘ozlar va ularning emitentlari rekvizitlariga Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysidan olingan ma‘lumotlar asosida o‘zgartirishlar kiritishi shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Investitsiya vositachisining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

*(27-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Investitsiya vositachisi tomonidan mijozlarning pul mablag‘larini hisobga olish va ularning but saqlanishini ta‘minlash tartibi qimmatli qog‘ozlar bozori tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: “Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir talablar to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 809, 31.08.1999-y.), “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalari (Standarti) (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.).*

## **28-modda. Investitsiya maslahatchisining faoliyati**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi, qimmatli qog‘ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil qilish hamda prognoz qilish masalalariga doir maslahat xizmatlari, transfer-agent xizmatlarini ko‘rsatuvchi, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs investitsiya maslahatchisidir.

*(28-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

## **29-modda. Investitsiya fondining faoliyati**

Investorlarning pul mablag‘larini va qo‘yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs — aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Investitsiya fondi yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o‘zgartirilishga haqli emas. Investitsiya fondini qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(29-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentabrdagi 410-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiya fondlari to‘g‘risida”gi nizomning XI bobi (“Investitsiya fondini qayta tashkil etish va tugatish”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Investitsiya fondi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talab etilmaydi va investitsiya fondining faoliyati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan o'z vakolatlari doirasida tartibga solinadi.

*(29-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentabrdagi 410-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya fondlari to'g'risida"gi nizomning XI bobi ("Investitsiya fondini qayta tashkil etish va tugatish").*

Investitsiya fondi quyidagi huquqlarga ega emas:

korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini, shuningdek imtiyozli aksiyalarni chiqarish;

fond sof aktivlarining 10 foizidan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiyalash;

to'lanishi lozim bo'lgan qarzning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolanadigan sanadagi holatga ko'ra investitsiya fondi sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda kredit va (yoki) qarz mablag'larini jalb etish. Kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak;

kafil bo'lish, mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yish;

tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni amalga oshirish;

investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirish;

boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olish va ularga ega bo'lish;

umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirish, bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentabrdagi 410-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya fondlari to'g'risida"gi nizomning 60-band.*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni.*

### **30-modda. Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchining faoliyati**

Yuridik shaxsning — ishonchli boshqaruvchining o'ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo'lgan:

qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog'ozlarni;

qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag'larini shu shaxsning yoki u ko'rsatgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, o'z nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshirishi investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatdir.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-bobi ("Mol-mulkni ishonchli boshqarish"), O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-apreldagi 189-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari to'g'risida"gi nizom.*

### **31-modda. Transfer-agent faoliyati**

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va ularning o'tkazilishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs transfer-agentdir.

Emitent, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzuvchi shaxslar transfer-agentning mijozlaridir.

Transfer-agent emitentga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga haqlidir.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Transfer-agent faoliyati to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1872, 21.11.2008-y.).*

### **32-modda. Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyati**

Investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxs qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyatini amalga oshirish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

*(32-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1384, 16.07.2004-y.).*

### **33-modda. Qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha pul mablag'larining hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.

*(33-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-martdagi O'RQ-760-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son)*

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblar Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan amalga oshiriladi.

### **34-modda. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar va bitimlarni hisobga olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi qimmatli qog'ozlar bozorida o'zlari amalga oshirayotgan barcha operatsiyalar va bitimlarning hisobini yuritadi, ularni hisobga olishga doir hujjatlarning qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlaydi.

*(34-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarini hisobga olish, ularning hisobi bo'yicha hujjatlarni saqlash to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1915, 07.03.2009-y.).*

## **35-modda. Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi va uning mijozi munosabatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi va uning mijozi munosabatlari qonunchilik hamda shartnoma bilan tartibga solinadi.

*(35-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qomuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 24 — 32-moddalari.*

Mijozlar hisobidan bitimlar tuzish mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida faqat investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 285-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida qiymatli qog'ozlar bilan bitishuvlar tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomning 10-bandi.*

Investitsiya vositachisi uzaytirish imkoniyati bilan bir yil uchun tuziladigan shartnoma asosida mijozlarga:

- mijozning nomidan va hisobidan brokerlik xizmatlari;
- o'z nomidan, lekin mijozning hisobidan brokerlik xizmatlari;
- depozitar xizmatlar ko'rsatadi.

Investitsiya vositachisi mijozlarga depo hisobvaraqlari ochishga, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish uchun ularning topshiriqlarini qabul qilishga, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda mijozlarga elektron shaklda va o'zga aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlarni ko'rsatishga haqli.

## **5-bob. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish**

### **36-modda. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni tashkil etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish qimmatli qog'ozlar egalarining Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida, investitsiya vositachisida va (yoki) chet ellik nominal saqlovchida ochiladigan depo hisobvaraqlarida amalga oshiriladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Investitsiya vositachisi va chet ellik nominal saqlovchi o'z mijozlarining hisobvaraqlarida ularning Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi hisobvaraqlarida jamlab hisobga olib boriladigan hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.

*(36-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qomuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*

### **37-modda. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarning o'tishi**

Hujjatsiz qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'i bo'yicha tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Nyettingdan foydalanilganda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar o'tishining o'ziga xos xususiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Egasining nomi yozilgan hujjatli qimmatli qog'ozga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga qimmatli qog'oz blankasiga belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi.



Qimmatli qog‘oz bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu qimmatli qog‘ozga bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e‘tiboran oluvchiga o‘tadi.

### **38-modda. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi**

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi hamda faoliyatini xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan amalga oshiradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli “Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi qarori.*

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi xizmatlari uchun tariflarning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

### **39-modda. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining mutlaq vazifalari**

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining mutlaq vazifalari quyidagilardan iborat:

qimmatli qog‘ozlarni hisobga qo‘yish;

hujjatli qimmatli qog‘ozlarni saqlash;

qimmatli qog‘ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash;

qimmatli qog‘ozlar egalarining reyestrlarini yuritish;

davlatning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini, shuningdek qimmatli qog‘ozlarni boshqarish bo‘yicha davlat vakolat bergan shaxslarning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

investitsiya vositachilari va chet ellik nominal saqlovchilarning depo hisobvaraqlarini yuritish;

*(39-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog‘ozlardagi hisob-kitoblarni va qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar natijalari bo‘yicha pul mablag‘laridagi hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirish;

*(39-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-martdagi O‘RQ-760-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son)*

O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritilgan qimmatli qog‘ozlarni hisobga olish;

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritilgan qimmatli qog‘ozlarni hisobga olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish;

*(39-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Deponentlarning yagona bazasini yuritish;

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarga xalqaro kodlarni berish;

depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati to'g'risidagi axborotni to'plash va tizimlashtirish.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli "Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi qarorining 2-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining mutlaq vazifalari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish bo'yicha vazifalari xalqaro obligatsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

*(39-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-apreldagi O'RQ-533-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son)*

#### **40-modda. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining huquq va majburiyatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish uchun chet ellik nominal saqlovchiga hisobvaraqlar ochishga;

emitent bilan tuziladigan shartnomaga ko'ra daromadlarni (dividendlarni) va qimmatli qog'ozlarning qiymatlarini to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini olishga, shuningdek tegishli to'lovlarni amalga oshirishga;

qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritishga doir vazifalarni bajarishda investitsiya vositachilaridan va chet ellik nominal saqlovchilardan mazkur reyestrlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishga haqli.

*(40-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

*(40-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli "Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi qarorining 2<sup>1</sup>-bandi.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida saqlash va hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

saqlash uchun qabul qilib olingan hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishini ta'minlashi;

o'zining har bir deponentiga tegishli qimmatli qog'ozlar sonining va nominal qiymatining hisobini yuritishi;

qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;



LexUZ sharhi

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 482-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi idoraviy arxiv to‘g‘risida”gi namunaviy nizom va “Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining qimmatli qog‘ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarini hisobga olish, ularning hisobi bo‘yicha hujjatlarni saqlash to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1915, 07.03.2009-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o‘z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

*(40-modda uchinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qarang: “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalari (Standarti) (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 28.3-bandining 28.3.2-kichik bandi.*

o‘z deponentining qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag‘idan tegishli ko‘chirma bergan holda tasdiqlashi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

depo hisobvaraqlari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarning mavjudligi va harakati, holati to‘g‘risidagi axborotning maxfiyligini ta‘minlashi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Qonunning 49 va 50-moddalari hamda “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining) (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 4 bobi (“Axborotning maxfiyligi”).*

o‘z deponentining depo hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonunchilikda belgilangan tartibda to‘xtatib turishi;



LexUZ sharhi

*Qarang: “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining) (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 53 bobi (“Qimmatli qog‘ozlarni to‘xtatib qo‘yish”).*

o‘z faoliyatiga taalluqli ma‘lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko‘ra qonunchilikda belgilangan doirada hamda tartibda taqdim etishi shart.

*(40-modda uchinchi qismining to‘qqizinchi, o‘ninchi va o‘n birinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Qonunning 50-moddasi va “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalarining (Standartining) (ro‘yxat raqami 844, 01.12.1999-y.) 4.3 — 4.5-bandlari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

*(40-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritish vazifasini bajarayotganda:

qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan reyestrlarini saqlashi;

qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlaridagi mavjud axborotni ushbu **Qonunga** muvofiq taqdim etishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlaridagi mavjud axborotning maxfiyligini ta'minlashi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi faktlari ko'rib chiqilgan taqdirda, tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar egalarining shakllantirilgan reyestridagi mavjud axborotni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yozma so'roviga ko'ra taqdim etishi shart;

*(40-modda beshinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 49 va 50-moddalari.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritish vazifasini bajarayotganda qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

*(40-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

o'ziga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlardan foydalanishga;

boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatishga;

boshqa yuridik shaxslarning ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

#### **41-modda. Deponentning huquq va majburiyatlari**

Deponent quyidagi huquqlarga ega:

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'z depo hisobvarag'idagi qimmatli qog'ozlarni qonunchilikda belgilangan doirada va tartibda tasarruf etish;

*(41-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'z depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bajarish yuzasidan topshiriqlar berish (uchinchi shaxslar oldida majburiyatlar yuklatilgan qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatish tugallanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasdan o'tkazishga doir farmoyish bundan mustasno), so'rovlar kiritish, topshiriqlar bajarilganligi to'g'risida hisobot talab qilish;

hujjatsiz va harakatsizlantirilgan hujjatli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqini hamda boshqa ashyoviy huquqlarni hisobga olishni investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshirish;

shartnoma shartlariga muvofiq o'z depo hisobvarag'ining holati haqida ko'chirma va o'z depo hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot olish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Deponent qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

*(41-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Deponent:

o'z vakolatli shaxsining vakolatlari tugatilganligi yoki o'zgartirilganligi to'g'risida investitsiya vositachisini va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini xabardor qilishi;

o'z rekvizitlaridagi barcha o'zgarishlar haqida investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga xabar berishi;

investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yozma xabarlarining to'g'riligi va to'liqligini tekshirishi hamda aniqlangan noaniqliklar haqida ularga o'z vaqtida xabar berishi shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Deponentning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

*(41-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **42-modda. Qimmatli qog'ozlarning va hisobga olish registrlaridagi yozuvlarning but saqlanishi kafolatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishi ularning egalari tomonidan, ular Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshirilgan taqdirda esa, mazkur depozitariy tomonidan qimmatli qog'ozlarni saqlash joylarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq ta'minlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Depozitariy hisobi va hisobot berish” Yagona qoidalari (Standarti) (ro'yxat raqami 844, 01.12.1999-y.).*

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining va investitsiya vositachilarining hisobga olish registrlaridagi qimmatli qog'ozlar hamda elektron yozuvlarning but saqlanishi, shu jumladan texnik tizimda nosozliklar va kutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda ularni tezkor qayta tiklash qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan birgalikda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadigan tartibda ta'minlanadi.

*(42-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-oktabrdagi O'RQ-726-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “Hisobga olish registrlaridagi elektron yozuvlarning but saqlanishini ta'minlash tartibi to'g'risida”gi nizom (ro'yxat raqami 2739, 11.12.2015-y.).*

## **6-bob. Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkor qilish**

### **43-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkor qilish to'g'risidagi umumiy qoidalar**

Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot ochiq va oshkoradir, qonunda belgilangan hollarda oshkor qilinadigan maxfiy axborot bundan mustasno.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 49 va 50-moddalari.*



*Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar axborotni:

*(43-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

hisobotlar, ma'lumotlar va boshqa axborot taqdim etish orqali oshkor qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi, emitent, fond birjasi ushbu Qonunda nazarda tutilgan axborotni investorlarga va qimmatli qog'ozlarning egalari qog'ozda taqdim etganlik uchun axborotdan nusxa ko'chirishga sarflanadigan xarajatlardan oshmaydigan miqdorda haq olishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari" (ro'yxat raqami 2383, 31.07.2012-y.).*

#### **44-modda. Axborotning emitent tomonidan oshkor qilinishi**

Emitent (davlat qimmatli qog'ozlari emitenti bundan mustasno) axborotni:

qimmatli qog'ozlar emissiya risolasida;

emitentning yilning har choragidagi va yillik hisobotida;

emitentning faoliyatidagi muhim faktlar to'g'risidagi xabarlarida oshkor qiladi.

Qimmatli qog'ozlar emissiya risolasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

emitentning to'liq va qisqartirilgan nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ deb yuritiladi), davlat statistikasi va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya raqamlari;

oxirgi uch yildagi yoki, agar emitent faoliyatni uch yildan kamroq muddat mobaynida amalga oshirayotgan bo'lsa, har bir tugallangan yil uchun buxgalteriya balanslari va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar;

faoliyatning asosiy yo'nalishlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat) turlari;

mustaqil reyting bahosi, agar uning shunday bahosi bo'lsa, tegishli izohlari bilan;

emitentning kuzatuv kengashi va ijroiya organi tarkibiga kiruvchi shaxslar ro'yxati, emitent aksiyalarining ularga tegishli miqdori (ustav fondidagi ulushlari miqdori) to'g'risidagi ma'lumotlar;

emitent filiallari va vakolatxonalarining, sho'ba va tobe jamiyatlarining joylashgan eri (pochta manzili) ko'rsatilgan ro'yxati;

emitent affillangan shaxslarining ularga tegishli aksiyalar miqdori va xillari ko'rsatilgan ro'yxati;

xodimlarning oxirgi uch yildagi o'rtacha yillik soni;

oxirgi uch yilda muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, ularning chiqarilish hajmi va maqsadi, ular bo'yicha hisoblangan va emitent tomonidan to'langan dividendlar (foizlar) to'g'risidagi ma'lumotlar;

oxirgi uch yilda emitentga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar va emitent sudda javobgar yoki da'vogar sifatida ishtirok etayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish shartlari.

Emitentning har choraklik hisobotida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

emitentning to'liq va qisqartirilgan nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ, davlat statistikasi va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya raqamlari;

tegishli chorak yuzasidan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

Emitentning yillik hisobotida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

emitentning to'liq va qisqartirilgan nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ, davlat statistikasi va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya raqamlari;

o'tgan yildagi xo'jalik faoliyati natijalari haqidagi axborot;

kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining yoki ijroiya organining tarkibidagi o'zgarishlarning asoslari;

tegishli yil yuzasidan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;

auditorlik tashkiloti xulosasining ko'chirma nusxasi;

qo'shimcha chiqarilgan qimmatli qog'ozlar haqidagi asosiy ma'lumotlar;

hisobot yilida emitentning faoliyatidagi muhim faktlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

boshqa yuridik shaxslarning 5 va undan ortiq foiz aksiyalariga (ulushlariga, paylariga) egaligi to'g'risidagi axborot, agar emitentning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan bo'lsa.

*(44-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan— Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)*

Emitentning faoliyatidagi muhim faktlar quyidagilardir:

emitentning nomi yoki joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki veb-sayti o'zgariganligi;

emitentning qayta tashkil etilganligi, faoliyati to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi;

emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar;

qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarning o'zgariganligi;

kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining yoki ijroiya organining tarkibidagi o'zgarishlar;

emitentning filiallari va vakolatxonalari, sho'ba va tobe jamiyatlari ro'yxatidagi o'zgarishlar;

emitentning mol-mulki, bank hisobvaraqlari xatlanganligi, emitentga nisbatan uning aktivlari qiymatining 10 foizidan ortiq miqdorda da'vo qo'zg'atilganligi;

emitent ustav fondining yoki aktivlarining 50 foizidan ortiq miqdorda kredit olinganligi;

aktivlarning qiymati bir marta 10 foizdan ortiqroq miqdorda ko'paytirilganligi yoki kamaytirilganligi;

miqdori yoki mol-mulking qiymati bitim tuzilgan sanadagi holatga ko'ra emitent aktivlarining 10 foizidan ortig'ini tashkil etadigan emitentning bir martalik bitimlari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

emitent tomonidan yirik bitimlar va manfaatdor shaxslar va (yoki) affilangan shaxslar bilan bitimlar tuzilganligi;

*(44-modda beshinchi qismining o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

emitent faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun litsenziya olganligi yoki litsenziya bekor qilinganligi, litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi;

qimmatli qog'ozlar chiqarilganligi, ularning chiqarilishi to'xtatib turilganligi va qayta tiklanganligi, qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilganligi;

emitent qaysi yuridik shaxslar aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) 10 foiziga va undan ortiq foiziga egalik qilayotgan bo'lsa, har bir shunday yuridik shaxsning ro'yxatidagi o'zgarishlar;

emitentning o'z qimmatli qog'ozlari egalari oldidagi qimmatli qog'ozlarni qaytarib sotib olishga (muomaladan chiqarishga) doir majburiyatlarini bajarish muddatlari kelganligi;

qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni hisoblash, emitentning qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlarni to'lashning boshlanganligi va tugallanganligi;

emitentga nisbatan bankrotlik tartib-taomili joriy etilganligi;  
hisobot yilida kuzatuv kengashi va ijroiya organi a'zolarining emitent aksiyalariga (ulushlariga, paylariga) egalik qilishidagi o'zgarishlar;

jamiyat affillangan shaxslarining ro'yxatidagi o'zgarishlar ushbu shaxslarga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni, turi va xili ko'rsatilgan holda;

qimmatli qog'ozlar egalarida ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarning emitent tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqining yuzaga kelganligi.

Emitent:

a) qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini va emitentning yillik hisobotini barcha manfaatdor shaxslar tanishib chiqishi uchun taqdim etishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) Korporativ axborotning yagona portaliga va o'zining rasmiy veb-saytiga:

*(44-modda oltinchi qismining "b" kichik bandi birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)*

qimmatli qog'ozlar emissiya risolasining matni bilan tanishib chiqish joyi va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek ushbu modda ikkinchi qismining **ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi** va **o'n ikkinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan axborotni qimmatli qog'ozlarni joylashtirish boshlanishiga kamida ikki hafta qolganida, bundan qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish mustasno;

emitentning yillik hisobotini aksiyadorlarning yoki emitentning boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilganidan keyin ikki hafta ichida;

emitentning birinchi chorak, birinchi yarim yil va to'qqiz oy yakunlariga doir hisobotini hisobot oyidan keyingi bir oy ichida;

*Oldingi tahrirga qarang.*

emitent va affillangan shaxs o'rtasida tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborotni bitim tuzilgan paytdan e'tiboran 72 soat ichida joylashtirish yo'li bilan;

*(44-modda oltinchi qismining "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

emitentning faoliyatidagi muhim fakt haqidagi xabarni u yuz bergan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida joylashtirish yo'li bilan oshkor qilishi shart bundan, affillangan shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risidagi xabar mustasno.

*(44-modda oltinchi qismining "b" kichik bandi oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Emitent qonunchilikka muvofiq boshqa axborotni ham oshkor qilishi mumkin.

*(44-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Agar emitentning qimmatli qog'ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa, ushbu moddada nazarda tutilgan axborotni majburiy ravishda oshkor qilish fond birjasining rasmiy veb-saytida amalga oshiriladi.

Fond birjasi ushbu moddada nazarda tutilgan axborot emitent tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilinganligi uchun haq undirishga haqli emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari" (ro'yxat raqami 2383, 31.07.2012-y.) II bobi ("Emitentning axborotni oshkor qilishi").*

#### **45-modda. Axborotning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi tomonidan oshkor qilinishi**

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi investorning talabiga ko'ra: davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatning ko'chirma nusxasini;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaning ko'chirma nusxasini yoki vakolatli davlat organini xabardor qilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

*(45-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining ustav fondi, o'z mablag'larining miqdori va zaxira fondi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

investor oladigan qimmatli qog'ozlar chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

investor oladigan qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasidagi ma'lumotlarni, shuningdek ushbu qimmatli qog'ozlarning investor tomonidan axborot taqdim etish to'g'risida talab qo'yilgan sanadan oldingi olti hafta davomidagi narxlar haqidagi ma'lumotlarni;

qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarning natijalari bo'yicha hisobotni shartnomada kelishilgan muddatlarda taqdim etadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi investorlarni ushbu moddada nazarda tutilgan axborotni olish huquqlari haqida xabardor qilishi shart.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi:

yilning bir choragi davomida faqat bir emitentning qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar;

bir emitentning qimmatli qog'ozlari bilan bir martalik operatsiya, agar bu operatsiya bo'yicha qimmatli qog'ozlarning soni mazkur qimmatli qog'ozlar umumiy sonining kamida 15 foizini tashkil etgan bo'lsa, ularning amalga oshirilganligi haqida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organini ikki ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qiladi.

Investitsiya fondlari axborotni ushbu Qonunning 44-moddasida nazarda tutilgan tartibda oshkor qiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"ning (ro'yxat raqami 2383, 31.07.2012-y.) 15 — 18-bandlari.*

#### **46-modda. Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining axborotni oshkor qilishi**

Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari:

savdoda bitimlar tuzish qoidalarini;

savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatini;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining talabiga ko'ra investorlarning yoki qimmatli qog'ozlar egalarining arizalarini, takliflarini va shikoyatlarini ko'rib chiqish yakunlari haqidagi axborotni oshkor qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari qonunchilikka muvofiq boshqa axborotni ham oshkor qilishi mumkin.

*(46-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"ning (ro'yxat raqami 2383, 31.07.2012-y.) 19 va 20-bandlari.*

#### **47-modda. Axborotning qimmatli qog'ozlar egasi tomonidan oshkor qilinishi**

Qimmatli qog'ozlar egasi emitent qimmatli qog'ozlari har qanday turining 35 va undan ortiq foizini olganligi haqidagi axborotni oshkor etishi shart.

Aksiyalar egasi mustaqil ravishda yoki affillangan shaxslar bilan birgalikda bir yoki bir nechta bitim tuzish natijasida aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining mazkur aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining jami 20 va undan ortiq foizini tashkil etuvchi aksiyalar paketini olganligi haqidagi axborotni oshkor etishi shart.

Qimmatli qog'ozlar egalarining axborotni oshkor etishi tartibi va muddatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 85 va 86-moddalari, "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"ning (ro'yxat raqami 2383, 31.07.2012-y.) 21 — 23-bandlari.*

#### **48-modda. Axborotning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan oshkor qilinishi**

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi ommaviy axborot vositalari va (yoki) o'zining rasmiy veb-sayti orqali quyidagi axborotni oshkor etishi shart:

qimmatli qog'ozlarning ro'yxatdan o'tkazilgan chiqarilishlari haqidagi hamda chiqarilishi, joylashtirilishi va muomalasi to'xtatib qo'yilgan hamda tiklangan, amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya berilganligi, uning amal qilishi to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi, litsenziya bekor qilinganligi to'g'risidagi;

qimmatli qog'ozlar bozorida huquqbuzarliklarga yo'l qo'yganligi uchun mazkur organ tomonidan javobgarlik choralari qo'llanilgan emitentlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, mansabdor shaxslar hamda ularga nisbatan qo'llanilgan javobgarlik choralari turlari to'g'risidagi;

o'z da'volari bo'yicha chiqarilgan sud qarorlari to'g'risidagi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

investitsiya maslahatchilarining xabarnomalari reyestri, ularning faoliyati to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to'g'risidagi;

*(48-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuniga asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi investorlarga va qimmatli qog'ozlar egalariga ushbu Qonunga muvofiq axborot taqdim etganlik uchun undan nusxa ko'chirishga sarflanadigan xarajatlar doirasida haq olishi mumkin.

#### **49-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotning maxfiyligi**

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mijozlari, ular hisobvaraqlarining holati va o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarning mazmuni (emitent, qimmatli qog'ozlarning turi va xili, soni, bahosi, bitim tuzilgan sana, vaqt, birja savdosi o'tkazilgan hollarda esa savdoda ishtirok etgan shaxslar ham bundan mustasno) maxfiy axborotdir.

Maxfiy axborotga ega shaxslar bu axborotdan bitimlar tuzish uchun foydalanishga, shuningdek uni bitimlar tuzish uchun boshqa shaxslarga berishga haqli emas.

Maxfiy axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslar bunday axborotni oshkor etganlik uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 191-moddasi.*



## 50-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida maxfiy axborotni oshkor qilish

Qimmatli qog‘ozlar bozorida maxfiy axborotni oshkor qilish qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur moddaning ikkinchi — oltinchi qismlari.*

Mijozlarning hisobvaraqlari bo‘yicha ma‘lumotlar — ularning o‘zlariga yoki vakillariga, o‘z vakolatlariga taalluqli masalalar yuzasidan — monopoliyaga qarshi davlat organiga, davlat soliq xizmati organlariga, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamentiga, sudlarga, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘lgan taqdirda esa, tergov va surishtiruv organlariga beriladi.

Mijozlarning — jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari bo‘yicha ma‘lumotlar ularning egalari vafot etgan taqdirda, merosxo‘rlarga yoki hisobvaraqning egasi ko‘rsatgan shaxslarga, o‘z ish yurituvidagi meros ishlari yuzasidan notarial idoralarga beriladi, chet el fuqarolariga nisbatan esa chet davlatning konsullik muassasalariga beriladi.

Birja bitimining mazmuni haqidagi axborot sudlarga taqdim etiladi, tergov va surishtiruv organlariga esa qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi mavjud bo‘lgan taqdirda taqdim etiladi.

Maxfiy axborot qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organiga quyidagi hollarda:

*Oldingi tahrirga qarang.*

u qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi faktlarini ko‘rib chiqayotganda;

*(50-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

u Qimmatli qog‘ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti a‘zolari bo‘lgan boshqa davlatlarning qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli organlariga ularning yozma so‘roviga ko‘ra axborot berganda oshkor qilinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq maxfiy axborot qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

*(50-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining IV bobi (“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborot”).*

## 51-modda. Davlat qimmatli qog‘ozlari to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilish

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat qimmatli qog‘ozlari to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(51-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### 7-bob. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish

## 52-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish asoslari

Qimmatli qog‘ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish:

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni hamda birja faoliyatini litsenziyalash va (yoki) bunday faoliyatga nisbatan majburiy talablar belgilash;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona"gi nizom.*

qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda chiqarish to'g'risidagi qarorlarda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarga emitentlarning rioya etishi ustidan nazorat qilish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari" (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi axborot qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishini ta'minlash;

*(52-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 6-bobi ("Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkor qilish").*

qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini attestatsiyadan o'tkazish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tkazish to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 660, 03.03.1999-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyati ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

*(52-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **53-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorida cheklovlar**

Qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagilar taqiqlanadi:

emitentga yoki qimmatli qog'ozlarga taalluqli axborotni oshkor qilmasdan qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

chiqarilishi ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan yoxud to'xtatib qo'yilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi;

*(53-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 9 va 12-moddalari.*

qimmatli qog'ozlar egasining o'z depo hisobvarag'ida bo'lgan qimmatli qog'ozlarning qiymati to'liq to'languniga qadar ularga doir bitimlar tuzishi, bundan nyettingdan foydalanish mustasno;

hiyla-nayrang ishlatish va insayder axborotdan foydalanish;



*Qarang: “Qimmatli qog‘ozlar bozorida manipulyatsiyani oldini olish qoidalari” (ro‘yxat raqami 820, 21.09.1999-y.).*

emitentning ustav fondi shakllantirilguniga qadar (tijorat banklarining ustav fondini shakllantirish hollari bundan mustasno), shuningdek emitentning ustav fondini to‘ldirish yoki emitentning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini qoplash uchun korporativ obligatsiyalar chiqarish;

obligatsiyalarning chiqarilishi ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorning shu qaror bilan belgilangan obligatsiyalarga doir huquqlar hajmiga taalluqli qismiga emitent tomonidan o‘zgartishlar kiritish;

qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining majburiyatlari bo‘yicha mijozning qimmatli qog‘ozlari va pul mablag‘larini undirish;

emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni ommaviy joylashtirishda va (yoki) ularning muomalasida bir investorga boshqasiga nisbatan afzallik belgilash, quyidagi hollar bundan mustasno:

a) davlat qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish;

b) aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlariga o‘zlariga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda qimmatli qog‘ozlarni olishda belgilangan tartibda imtiyozli huquq berish;



*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

v) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan qimmatli qog‘ozlarni olishga qonunchilikda va (yoki) emitent ustavida cheklovlar mavjud bo‘lishi.

*(53-modda birinchi qismi to‘qqizinchi xatboshisining “v” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Korporativ va infratuzilma obligatsiyalari ularning egalariga emitentni boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi.

Yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud o‘zaro kelishuv bilan bog‘langan yoki bir-birining mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 5 foizidan ortig‘ini olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor qilinishini, 20 foizidan ortig‘ini olish esa, oldindan uning roziligini olishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oldindan roziligini olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Emitent, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, o‘zi chiqargan aksiyalar bo‘yicha ularni qayta sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o‘zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga topshirishga haqli emas.

#### **54-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish va insayder axborotdan foydalanish**

Bila turib yolg‘on ma‘lumotlarni qasddan tarqatish, taraflarning majburiyatlari bir shaxs hisobidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab bajariladigan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar tuzish, shuningdek qimmatli qog‘ozning narxi xususida chalg‘itish maqsadida boshqa harakat sodir etish va bularning natijasida qimmatli qog‘ozlar narxining, ularga bo‘lgan talabning, taklifning yoki qimmatli qog‘ozlar savdosi hajmining bunday harakatlarsiz shakllanadigan darajadan o‘zgarishi yoki bunday harakatlarsiz shakllanadigan darajadan farq qiladigan darajada ushlab turilishi qimmatli qog‘ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish jumlasiga kiradi.

Market-meyker tomonidan muayyan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan narxlar, talab va taklif darajasini ushlab turish uchun qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish qimmatli qog'ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish hisoblanmaydi.

Qimmatli qog'ozlarning ushbu modda **birinchi qismida** nazarda tutilgan harakatlar inobatga olinmagan holda shakllanishi mumkin bo'lgan narxi, ularga bo'lgan talab, taklif yoki ularning savdosi hajmiga nisbatan qimmatli qog'ozlar narxining, ularga bo'lgan talab, taklifning yoki qimmatli qog'ozlar savdosi hajmining jiddiy ravishda o'zgarishi mezonlari qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan qimmatli qog'ozlarning turi, likvidiligi va (yoki) bozor qiymatiga qarab belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarni olish yoki realizatsiya qilish uchun oshkor qilinmagan (tarqatilmagan) va oshkor qilinishi (tarqatilishi) qimmatli qog'ozlar qiymatining o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganligi tufayli qimmatli qog'ozlar bozorining bir ishtirokchisiga boshqasiga nisbatan ustunlik berishi mumkin bo'lgan axborotdan foydalanish qimmatli qog'ozlar bozorida insayder axborotdan foydalanish jumlasiga kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish va insayder axborotdan foydalanish alomatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish va insayder axborotdan foydalanish fakti, shuningdek mazkur g'ayrihuquqiy harakatlarga aloqador shaxslarni javobgarlikka tortish chorasi sud tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida manipulatsiyani oldini olish qoidalari" (ro'yxat raqami 820, 21.09.1999-y.).*

## **55-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi**

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 1-bandining a) kichik bandi.*

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi:  
qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;  
qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni litsenziyalaydi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zбекистон Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona"gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

investitsiya maslahatchilarining xabarnomalarini qabul qiladi, ularning reyestrini yuritadi;  
*(55-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

investorlarning hamda qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va tartibga solish hamda uning ishtirokchilari faoliyati sohasida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqadi;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga doir talablarni, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi, ularni attestatsiyadan o'tkazadi va malaka guvohnomalari beradi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tkazish to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 660, 03.03.1999-y.).*

emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) chiqarish qoidalarini, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini, qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar o'tkazilishini hisobga olish va ular yuzasidan hisobot berish standartlarini, qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni hisobga olish registrini yuritish tartibini tasdiqlaydi;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari" (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.), "Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1384, 16.07.2004-y.), "Depozitariy hisobi va hisobot berish" Yagona qoidalari (Standarti) (ro'yxat raqami 844, 01.12.1999-y.), "Aksiyalar egalari reyestri va korporativ obligatsiyalar egalari reyestri to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1911, 25.02.2009-y.), "Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari bitimlarning hisob registri to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1919, 09.03.2009-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi hamda aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikning davlat boshqaruvi organlari, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda qonunchilikning buzilganligi aniqlangan hollarda ular yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan xulosalar va ko'rsatmalar chiqaradi, qoidabuzarlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq sanksiyalar qo'llaydi;

*(55-modda ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilishiga doir ishlarni ko'rib chiqish va jazo qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1131, 23.04.2002-y.).*

o'z mablag'lari yetarli darajada bo'lishiga doir majburiy normativlarni va qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklarni cheklovchi boshqa ko'rsatkichlarni, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) operatsiyalar yuzasidan hujjatlarni saqlash muddatlarini belgilaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo'shib olib borish tartibi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1895, 05.02.2009-y.), "Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarini hisobga olish, ularning hisobi bo'yicha hujjatlarni saqlash to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1915, 07.03.2009-y.).*

**56-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining huquqlari**



Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi: investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining hamda davlatning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudda da'vo qo'zg'atishga;

*Oldingi tahririga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi aniqlangan taqdirda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisining faoliyati to'xtab qolishiga sabab bo'lmaydigan ayrim operatsiyalarini o'z vakolatlari doirasida to'xtatib turishga;

*(56-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

davlat boshqaruvi organlaridan, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilaridan axborot va hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida so'rash hamda olishga;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni qo'shib olib borish tartibini belgilashga;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: "Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo'shib olib borish tartibi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to'g'risida"gi nizomning (ro'yxat raqami 1895, 05.02.2009-y.) III bobi ("Professional faoliyatni birga qo'shib olib borish tartibi").*

qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning, qimmatli qog'ozlar savdolari va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarga hisob-kitob-kliring xizmati ko'rsatishning yagona tizimini yaratish bo'yicha davlat tomonidan tashkil etiladigan korxonalar faoliyatining tartibini belgilashga;

Qimmatli qog'ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti a'zolari bo'lgan boshqa davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organlari bilan maxfiy va boshqa turdagi axborotni belgilangan tartibda ayirboshlashga haqli.

*Oldingi tahririga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

*(56-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **57-modda. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining majburiyatlari**

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi:

*Oldingi tahririga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining murojaatlarini ko'rib chiqishi hamda investorlarning yoki qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda tekshiruvlar o'tkazishi va qonunchilikda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni ko'rishi;

davlat boshqaruvi organlaridan hamda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilaridan investorlarning va qimmatli qog'ozlar egalarining huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi, bundan axborotning uchinchi shaxslarga oshkor etilishi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

*(57-modda birinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 50-moddasi.*

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestrini va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining reyestrini yuritishi;



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Qonunning 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 29-dekabrda 284-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish Yagona davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom va "Aksiyalar egalari reyestri va korporativ obligatsiyalar egalari reyestri to'g'risida"gi nizomning (ro'yxat raqami 1911, 25.02.2009-y.) IV bobi ("Reyestri shakllantirish tartibi").*

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlariga qonunchilikka muvofiq asoslantirilgan javob berishi;

*(57-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" (yangi tahriri)gi Qonuni.*

qimmatli qog'ozlar bozorining holati va uning ishtirokchilari haqida jamoatchilikni xabardor qilishi shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

*(57-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **8-bob. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

### **58-modda. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari**

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:  
qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi ("Sug'urta").*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari to'g'risida, qimmatli qog'ozlarning emissiyasini to'xtatib qo'yishga, qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va ularni bekor qilishga doir barcha hollar haqida, investitsiya maslahatchilarining xabarnomalari reyestri haqida, ularning faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatish bilan bog'liq holatlar to'g'risida, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining da'vo arizalari bo'yicha emitentlarga yoki qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilariga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari haqida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organidan axborot olish;

*(58-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish;



LexUZ sharhi

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” (yangi tahriri)gi Qonuni.*

qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi va yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash haqidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilish.

Investorlar va qimmatli qog‘ozlar egalari ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan huquqlardan tashqari:

qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida, emitentning joriy moliyaviy holati va emitentni rivojlantirish istiqbollari haqida axborot taqdim etishni emitentdan talab qilishga;

*Oldingi tahrirga qarang.*

pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk bilan, shuningdek pul bahosiga ega bo‘lgan huquqlar (shu jumladan, mulkiy huquqlar) asosida qimmatli qog‘ozlarga qonunchilikda va emitentning ta’ sis hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiyalarni amalga oshirishga;

*(58-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.*

qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z xizmatlarini taklif etayotgan qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilaridan o‘zlari to‘g‘risidagi axborotni ushbu Qonunga muvofiq talab qilishga ham haqli.



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Qonunning 4-bobi (“Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat”).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga va qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘zlari tuzgan shartnomalar shartlariga rioya etishi shart.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining ishtirokchilari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

*(58-moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

## **59-modda. Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining mulkiy javobgarligi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlar investor yoki qimmatli qog‘ozlar egasining oldida yetkazilgan zararlar doirasida qonunchilikka muvofiq quyidagilar uchun mulkiy javobgar bo‘ladi:

*(59-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan axborotni investorning talabiga ko‘ra taqdim etmaganlik yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etganlik uchun;

*(59-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

qimmatli qog'ozlar emissiyasining belgilangan tartibini buzganlik uchun;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 5-moddasi va "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari" (ro'yxat raqami 2000, 30.08.2009-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qimmatli qog'ozlarning insofsiz reklamasini amalga oshirganlik, qimmatli qog'ozlarning qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan chiqarilishining reklamasi, shuningdek muomalasi qonun bilan taqiqlangan qimmatli qog'ozlarning reklamasi uchun;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Qonunning 8-moddasi va O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasi.*

ular tomonidan investorlar bilan qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan investorlar huquqlarini hamda emitentlar va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari javobgarligini cheklovchi shartnomalar tuzilganligi uchun;

*(59-modda birinchi qismining to'rtinchi va beshinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

qimmatli qog'ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatganlik va insayder axborotdan foydalanganlikning sud tomonidan aniqlangan faktlari uchun, shuningdek qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarga doir narxlar to'g'risida qasddan buzib ko'rsatilgan axborot taqdim etish, shu jumladan reklamada shunday axborot taqdim etish orqali investorni yoki qimmatli qog'ozlar egasini qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yoki sotishga undaganlik uchun;

investorlar yoki qimmatli qog'ozlarning egalari bilan tuzilgan shartnomalar shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, shuningdek investor yoki qimmatli qog'ozlarning egasi bilan tuzilgan shartnomada kelishilganidan farq qiladigan shartlar asosida bitim tuzganlik uchun.

Investitsiya vositachisi va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi quyidagi hollarda ham o'z deponentlari oldida javobgar bo'ladi:

qimmatli qog'ozlarning egalari va ularga tegishli qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi yozuvlar buzib ko'rsatilganda, qimmatli qog'ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan hujjatlar yo'qotilganda yoki ularga shikast yetkazilganda;

deponent o'ziga tegishli qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq huquqlarini amalga oshira olmasligiga olib kelgan harakat (harakatsizlik) sodir etilganda.

Investitsiya vositachisi va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi deponentga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplaydi, yo'qotilgan yozuvlarni, qimmatli qog'ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni va hisobga olish registrlaridagi yozuvlarni tiklaydi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi saqlash uchun o'zi qabul qilgan hujjatli qimmatli qog'ozlarni yo'qotganlik yoki ularga shikast yetkazganlik uchun javobgar bo'ladi. Bunda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yo'qotilgan hujjatli qimmatli qog'ozlarni tayyorlashga ketadigan xarajatlarning o'rnini qoplaydi yoki ushbu qimmatli qog'ozlarni o'z hisobidan tayyorlaydi.

Qimmatli qog'ozlar emitentlarining majburiyatlari bo'yicha javobgarlik emitentlarning o'z zimmasida bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Shuningdek, qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi ("Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar"), "Depozitariyning faoliyatini amalga oshirishga doir*

talablar to'g'risida"gi *nizomning* (ro'yxat raqami 809, 31.08.1999-y.) VIII' bobi ("Depozitariyning javobgarligi"), "Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya konsultanti faoliyati to'g'risida"gi *nizomning* (ro'yxat raqami 1495, 15.07.2005-y.) 19 — 23-bandlari, "Transfer-agent faoliyati to'g'risida"gi *nizomning* (ro'yxat raqami 1872, 21.11.2008-y.) V bobi ("Transfer-agentning javobgarligi").

## **60-modda. Davlat organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish**

Davlat organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 50-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.*

## **9-bob. Yakunlovchi qoidalar**

### **61-modda. Investorning tavakkalchiligi**

Investitsiyalash obyekti sifatida qimmatli qog'ozlarni tanlash va bu tanlovning tegishli oqibatlari investorning tavakkalchiligidir.

### **62-modda. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha da'vo muddatlari**

Emitent va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni haqiqiy emas deb topish, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini, emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish jarayonida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun da'vo muddati emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini joylashtirish muddati tugagan sanadan e'tiboran bir yilni tashkil etadi.

Veksel saqlovchining indossantlarga qarshi va veksel beruvchiga qarshi talablari bo'yicha da'vo muddati belgilangan muddatda bildirilgan protest kunidan e'tiboran yoki chiqimlarsiz oborot to'g'risida shartlashilgan taqdirda, to'lov muddati kunidan e'tiboran bir yilni tashkil etadi.

Indossantlarning bir-biriga va veksel beruvchiga nisbatan talablari bo'yicha da'vo muddati indossant vekselni to'lagan kundan e'tiboran yoki unga nisbatan da'vo taqdim etilgan kundan e'tiboran olti oyni tashkil etadi.

Ushbu moddaning **birinchi — uchinchi qismlarida** nazarda tutilmagan o'zga hollarda, shuningdek boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha da'vo muddatlari qonunga muvofiq belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-bobi ("Da'vo muddati").*

### **63-modda. Nizolarni hal etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qimmatli qog'ozlar bozori sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

*(63-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **64-modda. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

*(64-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 22-son, 287-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son, 05.04.2019-y., 03/19/533/2885-son; 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son; 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son)*